

Hajmli applikatsiya



Applikatsiya rangli qog'oz, mato yoki boshqa materiallardan bo'laklar kesib, ularni qog'ozga yopishtirish orqali chiroyli tasvirlar yaratish usulidir.



Qog'oz bo'laklarini buklasak yoki qayirsak, applikasiyamiz hajmli bo'lib chiqadi.



Hajmli va noodatiy **Soyabon** applikasiyasini yasang.



Sizga kerak bo'ladi:




- rangli qog'oz;
- karton;
- qaychi;
- qalam;
- yelim;
- yumaloq shaklli predmet (masalan, stakancha).


Ish rejasi:

1. Rangli qog'ozdan **bir nechta bir xil o'lchamdagi aylana shakllarni kesib oling. Ularni o'rtasidan qirqing.**
2. Soyabonning qavariq qismi hosil bo'lishi uchun **har bir yarimaylanani o'rtasidan buklang.**
3. Soyabon hajmli bo'lishi uchun **qog'ozlarning yonlarini bir-biriga yopishtiring.**
4. Unga soyabonning dastasini **yelimlang.**
5. Applikatsiyani **bulutlar va yomg'ir tomchilari** kabi detallar bilan bezang.

Aylananing to'g'ri shaklini hosil qilish uchun trafaret yoki kerakli o'lchamdagi yumaloq predmet, masalan, stakanchadan foydalansangiz bo'ladi.



1



2



3



4



9